



TIL - MILLIY IDENTITETNING ASOSIY IFODASI SIFATIDA

Ro'zimurodova Zarifa Zaynidinovna

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning milliy identitetni shakllantirish va namoyon etishdagi o'rni filologik, falsafiy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilinadi. Tilning shaxs tafakkuri, milliy mentalitet, tarixiy xotira va madaniy meros bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda yoritilib, uning jamiyatni birlashtiruvchi hamda identifikatsion funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, umumiy tilshunoslik, etnolingvistika va sotsiolingvistika doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tilning milliy o'zlikni saqlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, til millatning ma'naviy tayanchi, tarixiy davomiyligini ta'minlovchi hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: til, milliy identitet, milliy o'zlik, lingvistik nisbiylik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, milliy tafakkur, madaniy meros, adabiy til, nutq madaniyati.

Annotation. This article comprehensively analyzes the role of language in the formation and manifestation of national identity from philological, philosophical, and social perspectives. The organic connection of language with individual thinking, national mentality, historical memory, and cultural heritage is illuminated on a scientific basis, and its unifying and identifying functions in society are revealed. Also, based on research conducted within the framework of general linguistics, ethnolinguistics, and sociolinguistics, the importance of language in preserving national identity is substantiated. According to the research results, language is interpreted as a spiritual support of the nation, an important factor ensuring historical continuity and strengthening social stability.

Keywords: language, national identity, national identity, linguistic relativity, sociolinguistics, ethnolinguistics, national thinking, cultural heritage, literary language, speech culture.

Millatning borligi, uning tarixiy davomiyligi va ma'naviy qiyofasi, eng avvalo, tilida namoyon bo'ladi. Til – bu oddiy aloqa vositasi emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan tafakkuri, turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlar va ruhiy olamini o'zida mujassam etgan tirik madaniy hodisadir. Shu bois har qanday jamiyatda til masalasi milliy o'zlikni anglash, o'z tarixiga munosabat va kelajak taraqqiyotini belgilash bilan bevosita bog'liq holda qaraladi. Zero, til bor joyda millat yashaydi, til zaiflashgan joyda esa milliy birlik va ma'naviy yaxlitlikka putur yetishi tabiiydir.

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar kengayib borayotgani bir tomondan taraqqiyot omili bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Xususan,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ommaviy madaniyat, chet tillarining faol kirib kelishi, axborot makonining universa llashuvi ayrim hollarda milliy tilning ijtimoiy mavqeiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday jarayonlarda tilning nafaqat kommunikativ, balki tarbiyaviy, madaniy va birlashtiruvchi kuch sifatidagi ahamiyatini chuqur anglash zarur bo'ladi.

Til insonning borliqni idrok etish usulini belgilaydi, uning dunyoqarashi va tafakkur tarzini shakllantiradi. Xalqning tarixiy xotirasi, og'zaki va yozma merosi, folklori, adabiyoti ham aynan til orqali saqlanib, keyingi avlodlarga yetkaziladi. Shu ma'noda til milliy identitetning eng barqaror tayanchi bo'lib, u shaxsda "kimman?" va "qaysi jamiyatga mansubman?" degan savollarga javob topishda muhim mezon vazifasini bajaradi. Demak, til milliy o'zlikni anglashning nafaqat belgisi, balki uning ichki mazmunini tashkil etuvchi asosiy omildir.

Til va milliy identitet o'rtasidagi bog'liqlik masalasi filologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik hamda ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy yo'nalishlardan biridir. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tilning millat hayotidagi o'rni dastlab umumiy nazariy tilshunoslik doirasida, keyinchalik esa sotsiolingvistika va etnolingvistika doirasida tizimli ravishda o'rganila boshlagan.

Umumiy tilshunoslikda tilning jamiyat bilan uzviy bog'liqligi g'oyasi Ferdinand de Saussure nomi bilan bog'liq. Uning lingvistik konsepsiyasida til ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinib, "til – nutq – nutq faoliyati" o'rtasidagi farqlar ilmiy asosda ajratib beriladi. Olim tilni jamiyat a'zolari tomonidan umumiy ravishda qabul qilingan belgilar tizimi sifatida izohlaydi. Bu yondashuv tilni millatni birlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida tushunishga nazariy poydevor yaratdi [1].

Til va tafakkur munosabati, shuningdek, tilning milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli masalasi Amerika etnolingvistika maktabi vakillari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, Edward Sapir hamda Benjamin Lee Whorf tomonidan ilgari surilgan lingvistik nisbiylik nazariyasiga ko'ra, har bir til borliqni o'ziga xos tarzda tasniflaydi va shu orqali sohiblarining fikrlash uslubini belgilaydi. Mazkur konsepsiya tilni milliy mentalitet va identitetning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida talqin etadi. Tilning leksik-semantik tuzilishi xalqning tarixiy tajribasi, tabiatga munosabati va madaniy qadriyatlarini aks ettirishi haqidagi fikrlar bugungi tadqiqotlar uchun ham metodologik ahamiyatini saqlab qolmoqda [2, 3].

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda esa tilning ijtimoiy funksiyalari, xususan, identifikatsiya va integratsiya vazifalari alohida ta'kidlanadi. Bu borada Joshua Fishman ishlari muhim o'rin tutadi. U tilni etnik o'zlikni saqlash va tiklashning asosiy vositasi deb hisoblab, tilning yo'qolishi milliy identitetning zaiflashuviga olib kelishini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Olimning tilni saqlash va tilni tiklash haqidagi qarashlari ko'plab mamlakatlarda milliy til siyosatini shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda [4].

Millat va identitet muammosini kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilgan tadqiqotlarda ham til markaziy omil sifatida qaraladi. Xususan, Benedict Anderson millatni tasavvuriy hamjamiyat sifatida talqin qilar ekan, umumiy adabiy til va matbuot makoni



milliy birlikni shakllantiruvchi asosiy kommunikativ platforma ekanini ta'kidlaydi. Bu yondashuv tilni nafaqat madaniy, balki siyosiy va ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida ko'rsatadi [5].

Mahalliy tadqiqotchi R.Jumamuratovanning fikricha, til har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy mavjudligini belgilovchi eng muhim omil ekani ta'kidlaydi. U tilni oddiy aloqa vositasi sifatida emas, balki millatning ruhi, qalbi va tafakkurining ifodasi sifatida talqin qiladi. Til orqali inson dunyoni anglaydi, fikrini shakllantiradi va jamiyat bilan muloqotga kirishadi. Shu bois barcha ijtimoiy ong shakllari – din, fan, san'at, falsafa ham til vositasida rivojlanadi [6].

H.Ismoilovning tadqiqotlarida o'zbek tilining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti hamda jamiyat rivojidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. U tilni millatning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va madaniy merosi sifatida talqin qilib, o'zbek tili asrlar davomida turli to'siq va ta'qiblarga duch kelganiga qaramay xalq qalbida yashab kelgani ta'kidlanadi. Tilning yashovchanligi xalqning vatanparvarligi, ona tiliga bo'lgan sadoqati bilan bog'liq ekani ko'rsatib beriladi [7].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, til va milliy identitet munosabatini tushuntirishda uch asosiy yondashuv — struktur, etnolingvistik va sotsiolingvistik qarashlar ustuvor hisoblanadi. Ularning har biri tilning jamiyatdagi o'rnini turli rakurslarda ochib beradi. Mazkur tadqiqot ana shu nazariy yondashuvlarni integrativ tarzda qo'llagan holda, tilni milliy identitetning nafaqat belgisi, balki uning mazmuniy asosini tashkil etuvchi fundamental omil sifatida talqin etishni maqsad qiladi.

Tilning milliy identitetni shakllantirishdagi roli faqat nazariy mulohazalar bilan chegaralanmaydi, balki u jamiyatning kundalik amaliy hayotida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir millatning ijtimoiy xulqi, muomala madaniyati, qadriyatlar tizimi va hatto estetik didi til vositasida ifodalanadi. Nutq jarayonida qo'llaniladigan murojaat shakllari, hurmat ifodalovchi birliklar, qarindoshlik terminlari yoki milliy-madaniy tushunchalarni bildiruvchi so'zlar bevosita xalqning ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Shu ma'noda til jamiyatning ichki ruhiy tuzilishini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos ko'zgudir.

Filologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tilning lug'at tarkibi millatning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda boyib boradi. Muayyan xalq hayotida muhim o'rin tutgan hodisalar, kasb-hunarlar, urf-odatlar yoki tabiat bilan bog'liq tasavvurlar, avvalo, til birliklarida mustahkamlanadi. Masalan, xalq og'zaki ijodida uchraydigan obrazli ifodalar, maqol va matallar, iboralar tizimi milliy tafakkurning shakllanishida katta rol o'ynaydi. Ular shunchaki badiiy vosita emas, balki ko'p asrlik hayotiy tajribaning ixcham ifodasidir. Shu bois bunday birliklar tilning faqat lingvistik emas, balki madaniy kod sifatidagi vazifasini ham namoyon etadi.

Adabiy tilning shakllanishi va me'yorlashuvi ham milliy identitet mustahkamlanishida alohida ahamiyatga ega. Chunki adabiy til umumxalq nutqini bir tizimga soladi, hududiy va shevaviy tafovutlarni ma'lum darajada uyg'unlashtiradi hamda milliy miqyosdagi yagona kommunikativ makonni yuzaga keltiradi. Bu jarayon millatning ijtimoiy-madaniy jihatdan



birlashuviga xizmat qiladi. Tilning me'yoriylashuvi natijasida ilm-fan, ta'lim, badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalarida yagona nutq andozasi qaror topadi, bu esa o'z navbatida milliy tafakkurning umumlashuviga olib keladi.

Tilning badiiy adabiyot bilan uzviy aloqasi ham alohida ta'kidlashga loyiq. Adabiyot milliy ruhiyatni eng nozik va teran qatlamlari bilan aks ettiruvchi soha bo'lib, u tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi, obrazlilik va ifodaviylikni boyitadi. Badiiy matnlar orqali millatning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari, ma'naviy ideallari ifodalanadi. Shu bois adabiy til taraqligi kuchli bo'lgan jamiyatlarda milliy o'zlik hissi ham barqarorroq bo'ladi. Til va adabiyotning o'zaro ta'siri milliy identitetning ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, til tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning dastlabki ijtimoiylashuvi oilada, ona tili muhitida kechadi. Bola aynan shu til orqali milliy qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni, muomala madaniyatini o'zlashtiradi. Demak, ona tili shaxsning ma'naviy kamolotida boshlang'ich poydevor vazifasini bajaradi. Tilga e'tiborsizlik esa yosh avlodning milliy ildizlardan uzoqlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ta'lim tizimida ona tilining mavqeini mustahkamlash, nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari bevosita milliy identitetni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Til siyosati masalasi ham ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Jamiyatda tilning ijtimoiy mavqei qanchalik yuqori bo'lsa, uning nufuzi ham shunchalik ortadi. Davlat tili sifatida faol qo'llanish, rasmiy ish yuritish, ilmiy izlanishlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli makonda keng foydalanish tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa milliy identitetni zamonaviy sharoitda ham barqaror saqlashga xizmat qiladi. Aks holda, tilning faqat maishiy doiraga siqilib qolishi uning ijtimoiy ahamiyatini susaytiradi.

Tilshunoslik tarixida ilgari surilgan qarashlar ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Jumladan, tilning ijtimoiy tabiatini asoslab bergan Ferdinand de Saussure, til va tafakkur munosabatini yoritgan Edward Sapir hamda Benjamin Lee Whorf, shuningdek, tilni etnik o'zlikni saqlash vositasi sifatida talqin qilgan Joshua Fishman tadqiqotlari tilning identifikatsion vazifasini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Millatni "tasavvuriy hamjamiyat" sifatida izohlagan Benedict Anderson ham umumiy adabiy tilning jamiyatni birlashtirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar til va identitet o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni nazariy jihatdan mustahkamlaydi [1, 2, 3, 4, 5].

Umuman olganda, til milliy mavjudlikning eng muhim belgisi, xalqning ma'naviy tayanchi va tarixiy davomiyligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. U millatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir-biriga bog'lab turuvchi uzluksiz zanjir vazifasini bajaradi. Shunday ekan, tilni asrash, rivojlantirish va uning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish masalasi faqat lingvistik muammo emas, balki milliy taraqqiyotning strategik vazifasi sifatida qaralishi lozim. Ana shundagina til milliy identitetning mustahkam tayanchi sifatida o'zining haqiqiy ijtimoiy-madaniy ahamiyatini to'liq namoyon eta oladi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, til milliy identitetning eng muhim va barqaror tayanchi hisoblanadi. U millatning shunchaki aloqa vositasi emas, balki tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etgan



murakkab ijtimoiy-madaniy tizimdir. Millatning borligi, uning ichki birligi va davomiyligi, eng avvalo, til orqali namoyon bo'ladi. Shu bois tilni milliy o'zlikning tashqi belgisi sifatida emas, balki uning mazmuniy mohiyatini belgilovchi asosiy omil sifatida baholash ilmiy jihatdan asoslidir.

Tadqiqot jarayonida tilning falsafiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishi aniqlandi. Falsafiy nuqtayi nazardan til inson tafakkurini shakllantiradi, borliqni idrok etish usulini belgilaydi; madaniy jihatdan u xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, an'analari va badiiy merosini saqlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi; ijtimoiy jihatdan esa jamiyat a'zolarini birlashtirib, "biz"lik tuyg'usini mustahkamlaydi. Aynan shu ko'p funksiyali tabiati tufayli til milliy identifikatsiyaning eng samarali mexanizmi sifatida maydonga chiqadi.

Shuningdek, tilning adabiy me'yorlashuvi, ta'lim va ilm-fan sohalarida faol qo'llanishi, ommaviy axborot makonida keng ishtiroki milliy identitetning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi. Aksincha, tilning ijtimoiy mavqei pasaygan sharoitda madaniy uzilishlar, ma'naviy begonalashuv va o'zlikni anglashdagi zaifliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat tilni asrash va rivojlantirish masalasini nafaqat lingvistik, balki strategik ijtimoiy vazifa darajasiga ko'taradi.

Demak, ona tiliga hurmat va e'tibor milliy o'zlikni saqlashning eng muhim sharti hisoblanadi. Tilga tayanmagan milliy taraqqiyot barqaror bo'la olmaydi. Shu bois tilni rivojlantirish, uning boy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yosh avlodda nutq madaniyatini yuksaltirish hamda milliy tilning jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Ana shundagina til milliy identitetning haqiqiy ifodasi sifatida millatning ma'naviy mustaqilligi va tarixiy davomiyligini ta'minlab bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saussure F. De. Course in General Linguistics / tarj. W. Baskin. – New York: McGraw-Hill, 1966. – 240 p.
2. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921. – 258 p.
3. Whorf B.L. Language, Thought and Reality: Selected Writings. – Cambridge, MA: MIT Press, 1956. – 278 p.
4. Fishman J.A. Reversing Language Shift: Theoretical and Empirical Foundations of Assistance to Threatened Languages. – Clevedon: Multilingual Matters, 1991. – 431 p.
5. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 1983. – 224 p.
6. Jumamuratova, R. (2025). Til – millat ruhi va tafakkurining asosiy ifodasi sifatida. Science and Innovation in the Education System, 4(8), 161–163. [извлечено от https://econferences.ru/index.php/sies/article/view/30973](https://econferences.ru/index.php/sies/article/view/30973)



7. Ismoilov H. Til va jamiyat taraqqiyoti // Ученый XXI века. 2023. №6-7 (97-98).
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/til-va-jamiyat-taraqqiyoti>.

